

TILDAGI LEKSIK TEJAMKORLIKNI ABBREVIATURALAR ORQALI IFODALANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15132336>

Saidov Xayrulla Shavkatovich

*Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Najmiyev Mirshod Mizrob o'gli

Buxoro davlat universiteti I bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada abbreviaturalarning tilni oddiylashtirishdagi tutgan o'rni va ularning tildagi ijobiy hamda salbiy jihatlari muhokama qilinadi va ularga mos ravishda misollar ham berilgan. Bundan tashqari abbreviaturalarning kommunikatsiya jarayoniga qay darajada ta'siri haqida fikr yuritiladi hamda bir nechta misollar orqali yoritiladi va she'riyatda ham qisqartirishlar ishlatilishi va uslubiy bo'yoqdorlikka erishida ishlatilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar

qisqartirish, ijobiy, salbiy, kommunikatsiya, tushunmovchilik, matn, axborot, muloqot, effektiv, motivatsiya, jamoaviy, oddiylashtirish, uslub, sinonim, uslub, metafora, matn, muhit, yozma til, noaniqlik, iyyimoiy tenglik.

EXPRESSION OF LEXICAL ECONOMY IN LANGUAGE THROUGH ABBREVIATIONS

Annotation

This article discusses the role of abbreviations in simplifying language and their positive and negative aspects in language, and provides examples accordingly. In addition, the impact of abbreviations on the communication process is discussed and illustrated through several examples, and the use of abbreviations in poetry and their use in achieving stylistic colorfulness is analyzed.

Keywords

abbreviation, positive, negative, communication, misunderstanding, text, information, dialogue, effective, motivation, collective, simplification, style, synonym, method, metaphor, text, environment, written language, ambiguity, social equality.

ВЫРАЖЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКОЙ ЭКОНОМИИ В ЯЗЫКЕ ПОСРЕДСТВОМ СОКРАЩЕНИЙ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль сокращений в упрощении языка, а также их положительные и отрицательные стороны в языке, а также приводятся соответствующие примеры. Кроме того, обсуждается и иллюстрируется на нескольких примерах влияние сокращений на процесс коммуникации, а также анализируется использование сокращений в поэзии и их применение для достижения стилистической выразительности.

Ключевые слова

аббревиатура, позитив, негатив, коммуникация, недопонимание, текст, информация, диалог, эффективный, мотивация, коллектив, упрощение, стиль, синоним, метод, метафора, текст, среда, письменный язык, двусмысленность, социальное равенство.

Abbreviaturalar va tilni oddiylashtirish – bu zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarida keng qo'llaniladigan va ko'plab sohalarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan fenomendir. Abbreviaturalar, ya'ni qisqartmalar, tilni qisqartirish va soddalashtirishning bir vositasi bo'lib, ular tez-tez ishlatiladigan so'zlar va iboralarni o'rniga keladi. Bu maqolada abbreviaturalarning tilga qanday ta'sir qilishi va tilni oddiylashtirishning afzalliklari hamda kamchiliklari ko'rib chiqiladi. Hattoki abbreviaturalar she'riyat sohasida ham ishlatiladi va buning asosiy maqsadi nutqiy tejamkorlik va tilni imkoni boricha soddalashtirishga intilishdir bundan tashqari uslubiy bo'yoqdorlik, ta'sirchanlikka erishish sifatida ham qaraladi. Bundan kelib chiqadiki abbreviaturalar boshqacha qilib aytganda qisqartma so'zlar tilni soddalashtirishda alohida o'rniga ega.

Abbreviaturalar – bu so'zlar yoki iboralarni qisqartirish yo'li bilan olingan shakllardir. Misol uchun, "kompyuter" o'rniga "komp", "Internet" o'rniga "net", "telefon" o'rniga "tel" ishlatiladi. Abbreviaturalar ko'pincha o'zi o'zgaradigan so'zlar (kalkalashgan so'zlar) sifatida ishlatiladi. Ular tezkor va samarali kommunikatsiyani ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, ular masofaviy va tezkor muloqotda ham foydali bo'ladi. Shu bilan birga, abbreviaturalarning tilga salbiy ta'siri ham bo'lishi mumkin. Ba'zida ularni haddan tashqari ko'p ishlatish, noto'g'ri yoki noaniq shaklda ishlatish, xususan, yuqori darajadagi ilmiy yoki rasmiy muhitlarda, so'zlashuvning aniqligini kamaytirishi mumkin. Abbreviaturalar tilni tezkor va samarali qilishga yordam beradi, biroq ularning tilga ta'siri turli jihatlaridan qaralganda ikki tomonlama bo'lishi mumkin. Quyida abbreviaturalarning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rishimiz mumkin:

Kommunikatsiya samaradorligini oshirish: Abbreviaturalar muloqotda vaqtni tejaydi. Masalan, "Mening fikrimcha" o'rniga "M.F." yoki "LOL" ("laugh out loud" - qahqaha qilish) kabi qisqartmalar ishlatish oson va tezkor bo'ladi.

Matnning tez va oson o'qilishi: Tezkor va qisqa ifodalash auditoriyaga aniq va tushunarli tarzda axborot yetkazish imkonini beradi. Bu ayniqsa, mobil qurilmalarda matn yozish yoki ijtimoiy tarmoqlarda qisqa xabarlar yuborishda muhim.

So'zlashuvning soddalashtirilishi: Abbreviaturalar murakkab so'zlar va iboralarini o'rnini bosib, tilni soddalashtiradi va shu orqali kommunikatsiyani qulaylashtiradi. Xususan, tezkor va norasmiy muhitda bu samarali bo'ladi.

Qisqa va aniq ifodalanish: Abbreviaturalar tezkor fikr almashishni osonlashtiradi. Bu xususan, o'quvchilar, talabalar yoki ish joylaridagi hamkasblar o'rtasida samarali kommunikatsiyaga olib keladi.

Tanganing ikki tomoni bo'lganidek abbreviaturalarning kommunikatsiya jarayonida ishlatganda salbiy ta'siri tomonlari ham mavjud. *A) Noaniqlik va tushunarsizlik:* Ba'zan abbreviaturalar har bir auditoriya uchun tushunarli bo'lmasligi mumkin. Masalan, biror so'z yoki iboraning qisqartmasi kimdir uchun tanish, boshqalar uchun esa noaniq bo'lishi mumkin. Bu esa kommunikatsiya jarayonida xatoliklar va tushunmovchiliklarga olib keladi. *B) Resmi va ilmiy tilga salbiy ta'sir:* Abbreviaturalar ko'pincha rasmiy va ilmiy muhitda tavsiya etilmaydi. Ularning haddan tashqari ishlatilishi tilning aniqligini va jiddiyligini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Ilmiy maqolalarda yoki rasmiy hujjatlarda abbreviaturalardan foydalanish o'quvchi yoki tinglovchi uchun notog'ri tasavvur hosil qilishi mumkin. *C) Yozma tilning yomonlashishi:* Abbreviaturalarning ortiqcha ishlatilishi yozma tildagi sifatni pasaytirishi mumkin. O'quvchilar yoki yosh avlodda grammatikani va to'g'ri yozishni o'rganishning o'rniga, ular faqat qisqartmalar bilan muloqot qilishga o'rganib qolishi mumkin. *D) Yangi so'zlarni yoki tushunchalarni yaratish:* Ba'zan abbreviaturalar o'zgarish va yangi so'zlar yaratishda qo'llaniladi. Biroq, bu o'zgarishlar tilning natural rivojlanishiga to'sqinlik qilishi yoki ma'lum bir guruhlar o'rtasida aloqa muammolariga sabab bo'lishi mumkin.

Tilni oddiylashtirish deganda, kommunikatsiya jarayonlarini osonlashtirish uchun so'zlarning va iboralarining yanada sodda va aniq bo'lishi nazarda tutiladi. Bu, masalan, murakkab jumalarni qisqartirish, murakkab so'zlarni o'rniga oson va tushunarli so'zlarni tanlash kabi usullarni o'z ichiga oladi. Oddiylashtirilgan til kommunikatsiya samaradorligini oshiradi, ayniqsa, keng auditoriyaga mo'ljallangan matnlar va ommaviy axborot vositalarida. Oson tushuniladigan til, har qanday yoshdagi va ta'lim darajasidagi insonlarga murojaat qilishda muhim ahamiyatga ega va quyidagilarni o'z ichiga oladi: *A) Tushunishni osonlashtirish:*

Oddiylashtirilgan til o'quvchilarga yoki auditoriyaga aniq va to'g'ri axborot etkazishda yordam beradi. Murakkab so'zlar va jumlar auditoriyaning har bir qatlamiga tushunarli bo'lishi uchun soddalashtiriladi. Bu esa tilning ko'plab turli guruhlar tomonidan oson tushunilishiga yordam beradi. *B) Kommunikatsiya samaradorligi:* Oddiylashtirilgan til tez va samarali muloqot qilishni ta'minlaydi. Masalan, rasmiy hujjatlar yoki ta'lim materiallari oddiylashtirilgan bo'lsa, ularni o'qish va tushunish ko'proq auditoriya uchun mumkin bo'ladi. Bu esa noaniqliklarni kamaytiradi va muloqotni yanada aniqroq qiladi. *C) Ijtimoiy tenglikni ta'minlash:* Tilni oddiylashtirish, axborotni o'rganish yoki tushunish uchun yuqori ta'lim yoki maxsus bilimlarga ega bo'lmagan insonlar uchun imkoniyat yaratadi. Har bir kishi, yoshidan yoki ta'lim darajasidan qat'i nazar, tushunishga harakat qilgan axborotni oson olishi mumkin. Bu ijtimoiy tenglikni ta'minlaydi, chunki hamma insonlar bir xil ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. *D) Effektiv ta'lim:* Ta'limda oddiylashtirilgan til o'quvchilarga yoki tinglovchilarga bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi. Murakkab ilmiy tushunchalarni sodda va tushunarli qilib bayon qilish, o'quvchilarga yanada yaxshi natijalar ko'rsatadi. Oddiylashtirilgan ta'lim materiallari o'quvchilarning ko'proq diqqatini jalb qiladi va ularning o'zlashtirish darajasini oshiradi. *E) Motivatsiyani oshirish:* Oddiy va aniq til ko'pincha odamlarning o'qish yoki o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Agar mavzu juda murakkab yoki qiyin bo'lmasa, o'quvchi yoki tinglovchi uni osonroq o'zlashtiradi va shu orqali o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi oshadi. *F) Jamoaviy ishlashni quvvatlash:* Oddiylashtirilgan til jamoa ichida samarali ishlashni ta'minlaydi. Agar biror guruhda oddiy va tushunarli til ishlatilsa, barcha a'zolar o'rtasida axborot almashinuvini osonlashtiradi. Bu jamoaning tezkor qarorlar qabul qilishiga va harakatlarni muvofiqlashtirishga yordam beradi.

Tilni oddiylashtirish, albatta, ko'plab afzalliklarga ega bo'lsa-da, ba'zi holatlarda uning kamchiliklari ham paydo bo'lishi mumkin. Oddiylashtirilgan tilni ishlatish jarayonida ba'zi muammolar yuzaga kelishi, axborotning to'g'ri va to'liq yetkazilishida noaniqliklar va tushunmovchiliklar bo'lishi mumkin. Quyida tilni oddiylashtirishning asosiy kamchiliklarini ko'rib chiqamiz:

Oddiylashtirish jarayonida murakkab yoki maxsus bilimlarni talab qiladigan mavzularning nozik tafsilotlari va nuanslari yo'qolishi mumkin. Ba'zan, ayrim ilmiy yoki texnik tushunchalarni soddalashtirganingizda, ularning haqiqiy ma'nosi yoki keng qamrovli yondashuvlar o'chib qolishi mumkin. Misol uchun, matematik yoki falsafiy tushunchalarni soddalashtirish ularga doir muhim tafsilotlarni tushunmaslikka olib kelishi mumkin.

Tilni soddalashtirish, ma'lum bir mavzuni yoritishning chuqurligini yo'qotishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, murakkab ijtimoiy yoki siyosiy

masalalarni oddiylashtirishda, bu mavzuga oid keng qamrovli va muhim fikrlar qisqartirilishi yoki to'liq yoritilmasligi mumkin. Bu esa auditoriya uchun mavzuning to'liq tushunilishi va analiz qilish imkoniyatini kamaytiradi.

Oddiylashtirilgan tilda ba'zi so'zlar yoki iboralar noaniq bo'lishi mumkin, chunki ba'zi atamalar soddalashtirilganda o'z ma'nolarini to'liq ifodalay olmasligi mumkin. Misol uchun, juda murakkab bir ilmiy tushuncha oddiy til bilan izohlanadigan bo'lsa, uning aniq mazmuni yo'qolishi va odamlar o'rtasida turlicha tushunilishiga olib kelishi mumkin.

Oddiylashtirish jarayonida, ayrim murakkab tushunchalar va nazariyalar soddalashtirilganda yangi, noaniq yoki noto'g'ri tushunchalar paydo bo'lishi mumkin. Masalan, ilmiy va texnik terminologiyani soddalashtirish ba'zan ularni noto'g'ri talqin qilishga olib keladi. Bu esa noto'g'ri axborot tarqatilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Murakkab, badiiy yoki adabiy tilni oddiylashtirish, uning o'ziga xos ifoda uslubini, go'zalligini yoki uning chuqur hissiy mazmunini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Masalan, adabiyotda yoki san'atda ishlatiladigan murakkab tilni soddalashtirish uning san'atkorona yoki emotsional ta'sirini kamaytirishi mumkin.

Tilni haddan tashqari oddiylashtirish uning ifodaviyligini va boyligini pasaytiradi. Murakkab va boy tilda ishlatiladigan sinonimlar, metaforalar va tasvirlar soddalashtirilgan shaklda o'zining to'liq ta'sirini yo'qotadi. Bu, ayniqsa, adabiyot yoki san'at sohasidagi matnlarda sezilarli bo'lishi mumkin.

"...Uylanganman. Xotinim Rasulova Muhabbat, 1982-yilda tug'ilgan. 2-shahar kasalxonasida hamshira bo'lib ishlaydi. O'g'lim – Salimov Nodir, 1996-yilda tug'ilgan, O'zMU talabasi. Ma'lumot-axborot hujjatlari 309 Qizim – Salimova Lola, 2001-yilda tug'ilgan, 261-maktabda o'qiydi. Mening turarjoyim: 100210, Toshkent shahri, Shota Rustaveli ko'chasi 5-uy 27-xonadon. Tel.: 71 272-28-61.[30]".

Ushbu matnda qisqartmalar ishtirok etgan va muallif nutqiy tejamkorlikka erishish, vaqtni va joyni tejashga intilgan: "...O'zMU talabasi..." va "tel" so'zlari aslida bu qisqartmalarning kengaytirilgan shakli quyidagicha bo'lishi kerak: O'zbekiston Milliy Universiteti va Telefon raqam. Muallif bu qisqartmalarni kengaytirilgan shaklini ishlatishi mumkin edi lekin qisqa variantlarini ishlatishni afzal ko'rdi sababi bu qisqartma so'zlar ko'pchilik muloqotchilarga tanish. Agar kengaytirilgan shakllari ishlatilganda edi tinglovchini zeriktitib qo'ygan bo'lar edi, bu ham tilni oddiylashtirishga bo'lgan intilishdir.

"...Menga Pushkin bir jahonu
Menga Bayron bir jahon
Lek Navoiydek bobom bor

³⁰ "Davlat tilida ish yuritish" «O'ZBEKISTON» NASHRIYOTI Toshkent – 2021,308-bet.

Ko'ksi osmon,o'zbekim...^[31]"

Tilni soddalashtirish hattoki she'riyatda ham qollaniladi buni yuqorida berilgan parchadan ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi lekin so'zini qisqartirgan va "lek" tarzida ishlatgan buning asosiy maqsadi ta'sirchanlikni oshirish, tejamkorlikka intilish va misralar orasidagi bo'g'inlar soni sababli.Aga lek so'zi lekin shaklida ishlatilganda edi o'quvchini zeriktirgan va ma'noviy ta'sirchanlikni yo'qotgan bo'lar edi.

Abbreviaturalar va tilni oddiylashtirish zamonaviy tilshunoslik va kommunikatsiya sohalarida juda muhim va keng tarqalgan elementlardir. Ular kommunikatsiyaning samaradorligini oshirishi mumkin, lekin bu jarayonni ehtiyotkorlik bilan boshqarish zarur. Har bir so'z va iborani qanday ishlatish, auditoriyaning ehtiyojiga mos ravishda tanlash, tilni aniq va tushunarli qilishda katta ahamiyatga ega.Tilni oddiylashtirishda abbreviaturalarning roli anchagina sababi har bir sohada ular shiddat bilan kirib bormoqda va kundalik kommunikatsiyaning bir qismiga aylanib ulgurgan, bundan tashqari ko'plab muloqotchilar bir nechta so'zlardan iborat bo'lgan brikmalarni to'liq holatda ishlatishdan ko'ra ularni qisqartirishga, so'zlarni tejashga, nutqiy qulaylikka, joy va vaqtni tejashga harakat qilishmoqda va bu jarayon ham tilni oddiylashtirishga bo'lgan omillardan biri sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR:

- 1.Yusupov, O. Sh. (2017). "O'zbek tilidagi abbreviaturalarning morfologik tahlili"
- 2.Akhmetov, S. A. (2015). "O'zbek tilidagi qisqartmalar va kommunikatsion funktsiyalari".
- 3.Kurbanov, A. (2020). "O'zbek tilida abbreviaturalar va tilni soddalashtirish texnikalari".
- 4.Sh. T. Rustamova (2022). "Texnik til va abbreviaturalar: Ilmiy-tadqiqotlar va usullar"
5. Crystal, D. (2003). "English as a Global Language"
6. Rogers, E. M. (2003). "Diffusion of Innovations"
7. Brezina, V. (2018). "Abbreviations in English: A Corpus-Based Study"
- 8.O'Rourke, M. (2015). "Language and Communication in the Digital Age"
- 9.Jucker, A. H., & Taavitsainen, I. (2003). "Historical Pragmatics: Pragmatic Developments in the History of English"

³¹ <https://kutubxonachi.uz/story-and-poetry/erkin-vohidov/o-zbegim-qasida-muallif-erkin-vohidov/#gsc.tab=0>

10. “Davlat tilida ish yuritish” «O‘ZBEKISTON» NASHRIYOTI Toshkent – 2021